



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1 (4) 2024

2024

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 1(4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;  
Носирхолжаева Гулнора Абдукаххаровна – т

Турдиев Ҷекруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфзизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Диљдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEM S TEAM” маъсулияти чекланган жамияти.

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i>	
XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI	
TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i>	
ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI .....	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i>	
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ	
ЁНДАШУВЛАР .....	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA	
IMPERIYALARI RAQOBATI .....	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамалович</i>	
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА	
БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ .....	35-39
<i>Maxmatkulova Nozikoy Choriyevna</i>	
O'ZBEKISTONDA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA	
QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR	
SIYOSATI .....	40-45
<i>Ochilov Farhod</i>	
O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIY HIMoya	
QILISHDAGI FAOLIYATI .....	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОЙ МУОММОЛАР .....	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ .....	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN	
ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR .....	66-71

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i>	
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ	
МОДЕЛИ .....	72-78
<i>Ro'zmetov Baxodir Shomurotovich</i>	
TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI	
TA'MINLASHDAGI O'RNI .....	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i>	
MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI .....	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i>	
АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ	
МОХИЯТИ .....	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i>	
АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ	
АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i>	
ДАВЛАННИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА	
ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ .....	119-124
<i>Жураева Гульзира</i>	
АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В	
МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ .....	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i>	
BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA	
NOPARAMETRIK USULLARI .....	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINING ISHLAB CHIQARISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH	
KO'RSATKICHLARI .....	137-147
<i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР	
БЎЙИЧА АНИҚЛАШ .....	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i>	
SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY	
SHARTI .....	158-170

## 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i>	
БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН Аллома .....	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманнановна</i>	
ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА	
АЛИ ДЖИННЫ .....	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i>	
AXBOROTLASHGAN JAMIyat RIVOJLANISHIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING FALSAFIY	
МОНИЯТИ .....	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSİYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA	
TA'SIRI .....	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Ҳакимович</i>	
ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	
ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	192-197
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON VA İJTİMOİY DAVLATÇILIK .....	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i>	
SİVİLİZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING İJTİMOİY-	
FALSAFIY AHAMIYATI (Samuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuv" asari	
asosida) .....	205-214

*Shukurov Orif Jumaboyevich*

JAMIyatda yoshlarning ijtimoiy aktivligini oshirish

xususiyatlari va tamoyillari ..... 215-219

**10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***Akhmedov Oybek Saporbayevich*

Theoretical overview of the definition "term" and "terminology" in

linguistic surveys ..... 220-227

*Ravshanova Gulruxbegim Қаҳрамон қизи*

ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕ'РИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ ..... 228-232

*Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna*

AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI ..... 233-237

*Uliqova Mavludaxon*

“QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON

BO'LISHI ..... 238-243

*Rahmonov Asror ibni Nusrat*

HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O'RNI ..... 244-252

*Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna*

SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI .... 253-258

*Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOIY-MADANIY FARQLAR .... 259-265

*Vokhidova Tamanno Saidjonovna*

MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION ..... 266-271

*Djurayeva Shahlo G'ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna*

INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARNING BADIY SEMANTIKASI ..... 272-277

**12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР***Uzakova Go'zal Sharipovna*

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA “YASHIL QURİLISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY

MASALALARI ..... 278-286

*Mirzaev Shukhrat Shavkatovich*

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ ..... 287-293

*Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li*

SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL ..... 294-301

*Islombek Abdikhakimov*

QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES ..... 302-309

*Xodjaeva Shirokhon Olimxon kizi*

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ

СИСТЕМЕ ..... 310-315

*Jiyenbayev Baxadir Ospanovich*

EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA

XORIJY TAJRIBA ..... 316-322

*Alishaev Sobir Tursunboevich*

СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ

ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ..... 323-329

<i>Адембаев Аралбай Куралбаевич</i>	
АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ .....	330-339
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников</i>	
ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ- ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ .....	340-346
<i>Xajiyeva Iroda Adambayevna</i>	
TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARNING O'RNI .....	347-351
<i>Ayatov Raximberdi Ibragimovich</i>	
XORIJUY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH .....	352-357
<i>Saidova Dilobar Ikrambayevna</i>	
MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY XULQ-ATVORNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI .....	358-361
<i>Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li</i>	
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI .....	362-367
<i>Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна</i>	
ТИБИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ .....	368-375
<i>Janonova Sitora Berdinazarovna</i>	
TA'LIM VA TARBIYA TARAQQIYOTIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING O'RNI .....	376-381
<i>Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи</i>	
ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА .....	382-387
<i>Bakhadirova Shoxina Nadir kizi</i>	
INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH .....	388-392
<i>Qurbanova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloyevna</i>	
OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI .....	393-397
<i>Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION METODLARI .....	398-403

**Maxmatkulova Nozikoy Choriyevna**

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,  
E-mail: [nozikoy@terdipi.uz](mailto:nozikoy@terdipi.uz)

## **O'ZBEKISTONDA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR SIYOSATI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asrning ikkinchi yarmida irrigatsiya-melioratsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash sohasida O'zbekistonda amalga oshirilgan kadrlar siyosati, erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** irrigatsiya, melioratsiya, mexanizatsiyalash, paxta monokulturasi, sakkiz yillik maktab, o'rta umumta'lum mehnat politexnika maktabi, kechki (smenali) o'rta umumiyl ta'lif maktabi, shahar va qishloq kas-hunar maktablari.

**Makhmatkulova Nozikoy Choriyevna**

Teacher of Termiz State Pedagogical Institute

## **PERSONNEL POLICY IN THE FIELD OF IRRIGATION-MELIORATION AND AGRICULTURAL MECHANIZATION IN UZBEKISTAN IN THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY**

**Abstract.** In this article analyzed the second half of the 20th century, the personnel policy implemented in Uzbekistan in the field of irrigation-melioration and agricultural mechanization, achievements and shortcomings.

**Key words:** irrigation, land reclamation, mechanization, cotton monoculture, eight-year school, secondary general labor polytechnic school, evening (shift) secondary general education school, urban and rural vocational schools.

**Махматкулова Нозикой Чориевна**

Преподаватель Термезского государственного  
педагогического института

## **КАДРОВАЯ ПОЛИТИКА В ОБЛАСТИ ИРРИГАЦИИ-МЕЛИОРАТИВНОСТИ И МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА**

**Аннотация.** В данной статье анализируется кадровая политика второй половины XX века, реализуемая в Узбекистане в области ирригации, мелиорации и механизации сельского хозяйства, ее достижения и недостатки.

**Ключевые слова:** ирригация, мелиорация, механизация, монокультура хлопка, восьмилетняя школа, средний общий трудовой политехнический институт, вечерняя (сменная) средняя общеобразовательная школа, городские и сельские профессиональные училища.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N06>

Ma'lumki, davlatlarning rivojlanishiga asosiy sabab jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jabhalarida bilimli mutaxassislarning faoliyat yuritishlari hisoblanadi. O'zbekistonda

XX asrning ikkinchi yarmida mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish, ishlab chiqarishni, paxta yetishtirishni maksimal darajada ko'paytirish maqsadida malakali kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilgan. Bu amaliy harakatlardan ko'zlangan asosiy maqsad esa paxta mustaqilligini ta'minlash bo'lib barcha iqtisodiy va ijtimoiy resurslar ushbu maqsadga qaratilgan edi. Natijada iqtisodiy ahvol og'irlashdi, ijtimoiy munosabatlarga putur yetdi. "Qachonlardir O'zbekiston mamlakatning paxta mustaqilligini ta'minlashi zarur, degan fikr ko'ndalang bo'lib qoldi. "Oq oltin" nihoyatda shafqatsiz usullar bilan qo'lga kiritila boshlandi. Bu yo'lga o'tmaganlarni vazifasidan chetlatishdi va yo'qotishdi, ularning o'rniiga "Yetib olamiz va o'zib ketamiz", "Besh yillikni ikki yilda qoyillatamiz", deya itoatkorona qo'l qovushtirib turadiganlar tanlandi. Faqat deraza tokchalar-iyu tomlarga paxta ekilmadi, xolos. Biz paxta mustaqilligini ta'minladik. O'zimiz esa qaram iqtisodiyotga ega bo'lib qoldik" deyilganda ayni haqiqat aytilgan edi [6; B.286.]. Biryoqlama yuritilan siyosat natijasida O'zbekiston nafaqat ittifoqdosh davlatlar balki dunyo davlatlari ko'z o'ngida ham paxta yetishtirishga ixtisoslashgan "baza" sifatida ko'rildi.

Ushbu maqsad yo'lida yuritilan siyosatni harakatlantirish uchun, avvalo kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yuzaga kela boshladi.

Bu ehtiyoj XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan holat emas edi. Chunonchi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Ittifoq qishloq xo'jaligining paxta plantatsiyalarida mehnat qiladigan, markazning omborlarini to'ldirib, g'aznasini boyitish uchun ishlaydigan, ongi kommunistik mafkura bilan sug'orilgan mutaxassis kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilgan edi. Bu siyosatning bosh maqsadi paxta monokulturasiga erishish bo'lib, hattoki 1960-1961 yillarda boshqa muhim sohalar bilan bir qatorda aynan qishloq xo'jaligi sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash uchun ta'lim sohasi bilan hamkorlikda istiqbolli rejalar tuzilishi davom etdi.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1961-yil 15-martdagi "O'zbekiston SSR sakkiz yillik maktabi, ishlab chiqarish ta'limi bilan birga bog'lab olib boriladigan o'rta umumta'lim mehnat politexnika maktabi va kechki (smenali) o'rta umumiyy ta'lim maktabi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi № 180-sonli qarori imzolandi.

"O'zbekiston SSR sakkiz yillik maktabi to'g'risida ishlab chiqilgan Nizom"ga ko'ra sakkiz yillik maktab to'liqsiz o'rta umumiyy ta'lim mehnat politexnika maktabi bo'lib, 7 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan barcha bolalarning (o'g'il va qizlarning) birgalikda majburiy ta'limini amalgalash oshirgan.

Sakkiz yillik maktabni tamomlaganlar korxonalar, kolxozlar, sovxozi, idoralarda ishlash bilan bir vaqtida kechki (smenali) o'rta umumiyy ta'lim maktablarida o'qishni davom ettirishlari yoki ishlab chiqarish ta'limi bilan birga bog'lab olib boriladigan o'rta umumiyy ta'lim mehnat politexnika maktablariga, shahar, qishloq kasb-texnika bilim yurtlariga, texnikumlarga va boshqa o'rta maxsus o'quv yurtlariga kirib o'qishlari mumkin bo'lgan.

Nizomning II bob, e-bandiga ko'ra Xalq maorifi organlari komsomol va pioneer tashkilotlari bilan birgalikda hamda o'qituvchilarning yordami bilan o'quvchilar orasiga har qanday sarqitlarning, xurofotlarning va feodal o'tmis odatlarining kirishiga qarshi keskin kurash olib borishlari, o'quvchilar kontingentining, ayniqsa mahalliy millat qizlarining to'liq sakkiz yillik ma'lumot olganlarigacha maktabda saqlab qolishga erishmoqlari lozimligi to'g'risida ko'rsatma berildi.

Aynan ushbu hujjatda umumta'lim maktablari o'quvchilarini qishloq xo'jaligi ishlariga o'rgatib borishning bosqichlari ham ko'zda tutilgan.

Ittifoq ta'limi nafaqat umumta'lim maktab programmasidan bilim berish, balki o'zbek xalqini o'tmishidan uzib, "porloq kommunizm" fuqarosiga aylantirish maqsadida harakat qilganligini ham ko'rshimiz mumkin. Aynan shu nizomning IV bobi, 22-bandiga ko'ra maktabning o'quv tarbiya uchastkasiga mudirlik qilishni maktab direktori biologiya o'qituvchisiga yuklaydi va u o'quv programmasiga muvofiq hamma sinflar uchun uchastkada amaliy ish planini tuzadi, bu planning bajarilishini ta'minlaydi, o'tkaziladigan tajribalarning amalga oshiriluviga alohida e'tibor beradi va o'quv-tajriba uchastkasining atrofdagi aholi uchun agronomiya madaniyati namunasi bo'lishiga erishadi deya ko'rsatma berilgan. Bundan anglashiladiki, maktab yoshidagi, ijtimoiy faoliyati bevosita qishloq xo'jaligi sohasi bilan hamnafas voyaga yetayotgan yosh avlodni Ittifoq manfaati yo'lida, paxta plantatsiyalarida mehnat qiladigan real ishchi kuchi sifatida maktab davridanoq adaptatsiya qilishga katta urg'u berilgan. Bu holatlar o'sha davrda me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, "O'zbekiston SSR ishlab chiqarish ta'limi bilan birga bog'lab olib boriladigan o'rta umumiyy ta'lim mehnat politexnika maktabi to'g'risidagi Nizom" ga ko'ra kommunizm g'oyalari ruhida tarbiyalangan ... tizimli ravishda jismoniy mehnat qila oladigan kishilarni tayyorlab chiqarish maqsad qilib olingan.

Ishlab chiqarish ta'limi bilan birga bog'lab olib boriladigan o'rta umumiyy ta'lim mehnat politexnika maktabini tamomlagan yigit-qizlar o'zları tanlagan kasblari bo'yicha ishlashlari yoki oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishlari mumkin bo'lgan. O'rta umumiyy ta'lim mehnat politexnika maktablarida sakkiz yillik maktabdan alohida ravishda IX-XI sinflardan iborat tarzda tashkil etilgan. Bunday maktablar aynan sakkiz yillik maktab bilan birga tashkil etilishiga ham ruxsat berilgan. Ishlab chiqarish ta'limi bilan birga bog'lab olib boriladigan o'rta maktabning yuqori sinflarida o'qish muddati 3 yil etib belgilangan. Sinflarning har birida (sakkiz yillik maktablardan 40 nafardan oshmasligi kerak) o'quvchilar soni 35 kishidan oshmasligi kerak bo'lgan. Bunday maktablarning IX sinfiga kirish uchun sakkiz yillik maktabni tamomlaganlik haqida guvohnoma va sog'ligi jihatidan shu kasbda ishlashga yaroqli ekanligi haqida tibbiy ma'lumotnomaga topshirishi kerak bo'lgan.

Har bir maktab yaqin joydagi bitta yoki bir nechta sanoat korxonasiga, qurilish obyektlariga, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish korxonalariga, sovxozi, remont-texnika stansiyalari, kolxozlarga biriktirib qo'yilgan. Korxona, qurilish, sovxozi, remont-texnika stansiyalari rahbarlari o'quvchilarni kasbga o'rgatish va ularning unumli mehnat qilishlariga tegishli sharoit yaratib berish uchun javobgar bo'lganlar. Ishlab chiqarish ta'limi va unumli mehnat jarayonida o'quvchilarda ishlab chiqarishda zarur bo'lgan xislatlar, sotsialistik "o'sish"ni ta'minlashga qaratilgan "o'zlikdan kechib Vatan manfaati uchun" harakat qilishni targ'ib etuvchi: yuksak mehnat madaniyati va ongli mehnat intizomi, ishga ijodiy yondashish, son va sifat ko'rsatkichlarini tinmay o'stira borishga intilish kabi "ko'plab" xislatlarni tarbiyalash ko'zda tutilgan.

O'quvchilarga kolxoz va sovxozlarda ishlab chiqarish ta'limi berish o'quvchilar brigadalarida, o'quv-tajriba xo'jaliklarida hamda kolxoz brigadalarida amalga oshirilgan. Korxona, qurilish, sovxozi, remont-texnika stansiyalari, kolxozlarning injener-texnik, agronom va boshqa xodimlari maktabda ishlab chiqarish-texnika bilimlarini keng propaganda qilishga jalb etilganlar. Tadqiq etilayotgan davrda tabiiyki davlat agrar sohalarga ixtisoslashuvi qishloq

xo'jaligi sohasini harakatlantiruvchi asosiy kuch bo'lgan agrar soha mutaxassislarining obro'sining ortishiga sabab bo'lgan.

Butun jamiyat a'zolarini ko'proq mehnat qilishga undash maqsadida ta'lif muassasalarida ham agrar sohaning rivoji mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy soha sifatida ko'rsatib borilgan. Jumladan, yoshlarga ta'lif beradigan o'qituvchilarga soha yutuqlari va uning kelajagi, yerni paxta ekishga tayyorlashdan tortib to uni ekish, parvarish qilish, yig'ishtirib olish, eng muhimi belgilangan planni bajarish uchun jadal harakat qilishning ahamiyati haqida mutaxassislar va'zxonliklar qilganlar. Natijada pedagogning asl funksiyasi chetda qolib uni ham qishloq xo'jaligi sohasida jon kuydiradigan mutaxassisiga aylantirib qo'ygan. Bu esa ta'lif sifatiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan.

"O'zbekiston SSR kechki (smenali) o'rta umumiyligi ta'lif maktabi to'g'risida Nizom"ga ko'ra Sakkiz yillik maktabni tugatgan hamda xalq xo'jaligining biron sohasida ishlayotganlarga to'la o'rta ma'lumot berish hamda ularning kasb malakalarini oshirishga imkon berilgan.

Kechki (smenali) o'rta umumiyligi ta'lif maktabida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qitilgan. Maktablarda umumiyligi ta'lif, politexnika va maxsus fanlarni o'rganish ishlari o'quvchilarining ishlab chiqarish malakalarini oshirishga ko'maklashish maqsad qilingan.

Bunday maktablarda IX, X, XI-sinflar bo'lib, o'qish muddati 3 yil yil etib belgilangan. Ishlab turgan va sakkiz yillik ma'lumoti bo'limgan yoshlar uchun kechki (smenali) o'rta maktabda uchinchi sinfdan boshlab hamma sinflar ochilishi mumkin bo'lgan (uchinchisakkizinchisi sinflar sakkiz yillik maktablar huzurida ham ochilishiga ruxsat berilgan). Kechki (smenali) o'rta umumiyligi ta'lif maktablarining IX-XI sinflarda faol bo'lgan o'quvchilar uchun mehnatni rag'batlantirish maqsadida o'quv yili davomida qisqartirilgan ish kuni yoki ish haftasi belgilangan. Shuningdek SSSR Ministrlar Sovetining 1959-yil 5-noyabrida chiqarilgan №1233 qaroriga (O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1959-yil 21-dekabrdagi № 957 qaroriga) asosan XI sinfda maktabni tugatish imtihonlarini topshirish vaqtida qo'shimcha ta'til ham berilgan.

1961-yil 9-mayda O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "O'zbekiston SSR shahar va qishloq kasb-hunar bilim yurtlari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu Nizomga ko'ra shahar va qishloq kasb-hunar maktablari sakkiz yillik o'rta maktabni tamomlaganlarga mo'ljallangan davlat ta'lif muassasalari bo'lib, maktab bilan hayotning aloqasini mustahkamlash hamda "O'zbekiston SSR xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qonunga muvofiq ishlab chiqarishga o'tayotgan yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish va texnik bilim olishlari uchun tashkil etilgan.

Shahar va qishloq kasb-hunar maktablarining asosiy vazifasi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun ishchilar va qishloq xo'jaligi xodimlarini tayyorlash, o'quvchilarни kommunistik g'oya asosida tarbiyalash, ularni mehnatga jalb qilish edi. Bu muassasa faoliyati ishlab chiqarish tarmoqlariga ixtisoslashtirilib, tarbiyaviy ishlarni yoshlarning samarali mehnatda faol va tizimli ishtirok etishi, korxona, qurilish, sovxozi va kolxzolar bilan yaqin aloqada bo'lishi asosida olib borgan.

Shahar kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qish muddati malakali kadrlar tayyorlanadigan kasblar ro'yxatiga muvofiq o'rganilayotgan kasblarning murakkabligiga qarab bir yildan uch yilgacha, qishloqlarda esa bir yildan ikki yilgacha qilib belgilab qo'yilgan. Ishlab chiqarish va nazariy tayyorgarlikdan o'tish uchun talabalar o'z kasblari bo'yicha bir xil bo'lgan

o'quv guruhlariga birlashtirilgan. O'quv guruhlarida o'quvchilar soni 25-30 kishi etib belgilangan.

Qishloq xo'jaligi sohasida murakkab texnik xizmat ko'rsatish, xavfli yoki o'ta og'ir ishlarni bajarish bilan bog'liq kasblar bo'yicha ishlab chiqarishda o'qitish belgilangan tartibda, tasdiqlangan ro'yxatlar bo'yicha darslar 12-15 kishidan iborat guruhlarda o'tkazilgan. Kasb-hunar maktablari sanoat korxonalari, qurilish obyektlari, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari, sovxozi, kolxozlar, remont-texnika stansiyalariga biriktirilib hamkorlikda mutaxassislar tayyorlangan. O'qishni bitirgan mutaxassis kadrlar o'z sohalari bo'yicha mehnat qilish uchun joylarga safarbar etilgan. Amaldagi bu kabi tartib mamlakatda qishloq xo'jaligiga e'tibor qay darajada ekanligini yana bir bor ko'rsatadi.

Hukumat nafaqat umumta'lim maktablariga balki o'rta-maxsus ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimiga ham jiddiy e'tibor bergani. Chunki faqat oliy ma'lumotli kadrlar yetishtirishga urg'u berish va ulardan katta natija kutish ko'zlangan maqsadni amalgam oshirishga yetarli emas edi. Shu sababdan maxsus gidromelioratsiya texnikumlari va mexanizatsiya maktablari tashkil etilib, ularda o'rta ma'lumotli irrigatsiya-melioratsiya sohalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlangan.

Hattoki yangi o'zlashtirilgan hududlarning aholisi uchun o'zlari istiqomat qilib turgan hududlarda o'rta-maxsus o'quv yurtlari tashkil etilgan. Jumladan, "Mirzacho'lda 1956-1966 yillar mobaynida 7 ta qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash bilim yurti va 2 ta davlat xo'jalik texnikumi ochilgan. 1966 yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mazkur texnikumlarda 3000 ga yaqin kishi tahsil olgan. Bu o'quv yurtlari yangi sug'oriladigan hududda tashkil qilinadigan xo'jaliklar uchun mexanizator, texnik-quruvchi va kichik agronom kadrlarini tayyorlab bergen" [5; B.63.].

Sovetlar davrida O'zbekistonda daromad beruvchi asosiy soha agrar xo'jalik bo'lganligi sababli agronom, irrigator-meliorator va mexanizator kadrlar tayyorlash tizimiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Chunki bu davrda paxtachilik yetakchi soha hisoblanib, uni rivojlantirish asosan yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash va ularning malakasi bilan bevosita bog'liq edi. Bu borada o'zbek irrigatorlarining asrlar davomida to'plagan ilg'or tajribalari paxtachilikni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Shu sababli respublikada irrigatsiya-melioratsiya sohalari uchun o'rta-maxsus va oliy ma'lumotga ega mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Irrigatsiya sohasidagi oliy ma'lumotli kadrlarni asosan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (1934-yili tashkil etilgan), Samarqand qishloq xo'jaligi instituti (1929-yil tashkil etilgan) va Andijon paxtachilik institut (1964-yil tashkil etilgan)lari tayyorlab berar edi.

Jamiyatda sovet propagandachilarining sa'yi harakatlari, mafkuraviy ta'sirni kuchaytirish borasida olib borgan jonbozliklari tufayli yoshlari orasida qishloq xo'jaligi, irrigatsiya, mexanizatsiya sohalari eng obro'li kasblar ekanligi haqidagi fikrlar shakllanrilgan. Natijada, xotin-qizlarning bu sohaga qiziqishlari yuqori nuqtaga chiqqan. O'qishga kiradigan yoshlarning katta qismi qishloq xo'jaligi, politexnika, irrigatsiya sohalariga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishni maqsad qilishgan. Shunday holatlar bo'lganki, Andijon rayoni markazi shifoxonasi tug'ruqxona bo'limi boshlig'i R.Saxautdinovaning fikriga e'tibor qaratsak, tug'ruqxonalarda tug'ilgan chaqaloqning ingrashini ham mana, kelajakka yana bitta paxtakor tug'ildi, degan ilinj bilan uni kutib olishgan [7; B.114.] va yuqorida keltirilgan sohalarga o'qishga kirgudek bo'lsa, u kelajakda paxta xirmonlarini tog'day yuksalishiga hissa qo'shadigan bo'lajak qahramon sifatida qarashgan.

XX asrning boshlarida mamlakatimizda irrigatsiya, melioratsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ishlarining ahamiyati ortib soha uchun zarur bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash tizimini shakllantirish zaruratga aylanib bordi. Shuningdek, yurtimizda irrigatsiya-melioratsiya, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash sohasining malakali mutaxassislari tayyorlaydigan oliy ta'lif muassasalarining ochilishi tarixiy asos va tajribalarning o'ziga xos natijasi ekanligi, shubhasiz. Bir qator irrigatsiya-melioratsiya, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash sohasi mutaxassislari tayyorlaydigan oliy ta'lif dargohlarida 1960-yillarda xorij mamlakatlaridan ham talabalar jalb qilish ishlari sezilarli darajada kengaytirilgan. Xususan, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining turli fakultetlarida Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ko'plab mamlakatlaridan talabalar kelib tahsil olishgan.

1961-yilda ushbu institutda xorijiy mamlakatlar uchun fan nomzodlari tayyorlash amalga oshirila boshlangan bo'lsa, 1963 yildan boshlab esa institutda har yili qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va melioratsiya muammolari bo'yicha BMT stipendiatlari uchun xalqaro seminarlar o'tkazila boshlangan. Bu anjumanlarda Ruminiya, Misr, Eron, Hindiston, Pokiston, Efiopiya, Gretsya va boshqa mamlakatlardan mutaxassislar ishtirok etgan [1; B.119.].

Xulosa qilib aytish mumkinki, sovetlarning O'zbekistondagi cho'l hududlarini paxta maydonlariga aylantirish rejasini amalga oshirishga qattiq kirishishi kadrlar masalasini ham bu bilan yonma yon hal etib ketilishiga ehtiyojni yuzaga keltirgan. Natijada O'zbekiston aholisini qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanish imkonni bo'limgan hududlarida ham dehqonchilik qilish mumkinligiga ishontirishga harakat qilingan va bu maqsadda jiddiy amaliy harakatlar olib borilgan. Paxta dalalari uchun kadrlar yetishtirish masalasi eng dolzarb masala bo'lib, amaliy harakatlar ta'lif tizimining eng quyi bosqichlaridan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Yangi o'zlashtirilgan yerlarga mahalliy aholi ko'chirib borilgan va ularga yashash uchun, ta'lif olish uchun birlamchi shart-sharoitlar yaratib berilgan.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Кхабибуллаев О. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 9 (2021) / ISSN 2181-1415. -Б.119
2. Abduvaxob M. O'ZBEKISTON HUDUDIDA BIRINCHI BESH YILLIK (1928-1933 YILLAR) DA IRRIGATSIYA INSHOOTLARINING QURILISHI VA QISHLOQ XO 'JALIGINING YUKSALISHI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 127-135.
3. Sultonbekovna M. M., Shuxratovich A. S. O 'ZBEKISTON QISHLOQ XO 'JALIGIDA YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO 'NALISHLARI //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 23. – №. 3. – С. 39-45.
4. Tursunov A. QISHLOQ XO 'JALIGI ISHLAB CHIQARISHINI MODERNIZATSIYA QILISH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 108-112.
5. Абдунабиеv А.Г.Борьба КПСС за увеличение орошаемых земель (на примере Голодной степи). -Ташкент: Узбекистан, 1966. -С.63.
6. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Т.: Ўзбекистон. Б. 286.
7. Ўз МА, Р-2806-фонд, 1-рўйхат, 11-иш, Б.-114.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**Nº 1 (4) – 2024**

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масьулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).